



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR**  
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
2026-yil 30-aprel



**KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARNING MUSTAQIL  
FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI**

**Erkaboyeva Nigora Shermatovna**

*Pedagogika fanlari doktori, professor,*

*Qo'qon davlat universiteti*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish muammosi kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda mustaqil fikrlash tushunchasining mohiyati, uning o'quv faoliyatidagi o'rni hamda shaxs kamolotidagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, interfaol metodlar, muammoli ta'lim, differensial va qobiliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida o'quvchilarning fikrlash kompetensiyalarini shakllantirishning samarali pedagogik mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Maqolada ta'lim jarayonida o'qituvchining fasilitatorlik roli, o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirish hamda ularning o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarning mustaqil qaror qabul qilish va muammolarni hal etish kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.*

**Kalit so'zlar:** *mustaqil fikrlash, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, ta'lim metodikasi, interaktiv metodlar, zamonaviy dars, o'quv faoliyati.*

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish va rivojlantirish dolzarb masalalardan biri sanaladi. Global axborot oqimi sharoitida har bir inson o'z fikrini mustaqil ifoda eta olishi, tanqidiy va tahliliy yondashuvi bilan ajralib turishi muhimdir. Aynan shu jihatlar bilim olishning sifati va samaradorligini oshiradi. Ushbu maqolada o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy asoslari, samarali usullari va amaliy yondashuvlari tahlil qilinadi. Mustaqil fikrlash tushunchasi va uning ahamiyati

Mustaqil fikrlash – bu insonning mavjud axborotni tahlil qilishi, baholashi va o'z xulosalarini shakllantirishi jarayonidir. Bunday fikrlash faqat bilimga asoslanibgina qolmay, balki muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, yangilik yaratish, kreativ fikr yuritish imkonini ham beradi. O'quvchilar mustaqil fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lsa, ular nafaqat darslikdagi bilimlarni o'zlashtiradilar, balki real hayotdagi muammolarga nisbatan ham faol pozitsiyada bo'ladilar. Bu esa ularning ijtimoiy faolligini oshiradi. Psixologlarning ta'kidlashicha, inson tafakkuri, ayniqsa yosh avlodniki, faol muhitda, ijodiy yondashuv asosida rivojlanadi. O'quvchining mustaqil fikrlashini shakllantirishda quyidagi pedagogik yondashuvlar muhim rol o'ynaydi: Konstruktiv ta'lim: bunda o'quvchi markazda turadi va o'qituvchi yo'naltiruvchi rolini bajaradi. Muammoli ta'lim: o'quvchiga muammoli vaziyatlar beriladi va u ularga mustaqil



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR**  
**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**  
**2026-yil 30-aprel**



yondashishga undaladi. Interaktiv metodlar: “aql charxi”, “bahs-munozara”, “rol oʻynash”, “klaster”, “fikrlar boʻroni” kabi usullar orqali oʻquvchilar oʻz fikrlarini aytishga oʻrganadilar. Tadqiqot metodlari: loyihalar, izlanish topshiriqlari, savol-javob asosida fikrlash chuqurlashadi.

Zamonaviy taʼlim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – bu oʻquvchilarning mustaqil fikrlash koʻnikmalarini shakllantirishdir. Endilikda oʻqituvchining roli faqat bilim beruvchi emas, balki oʻquvchini fikrlashga, izlanishga, oʻz qarashini shakllantirishga yoʻnaltiruvchi boʻlishdir. Mustaqil fikrlash – bu nafaqat bilimlarni oʻzlashtirish, balki mavjud vaziyatlarga tahliliy, tanqidiy, ijodiy yondasha olishdir. Ushbu maqolada oʻquvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishning mazmuni, metodik yoʻllari va hayotiy misollar orqali amaliy yondashuvlar yoritiladi. Mustaqil fikrlash deganda oʻquvchining har qanday vaziyatda tayyor javoblarga emas, balki oʻz xulosalariga tayanib harakat qilishi, muammoni tahlil qilishi, qaror qabul qilishi tushuniladi. Bunday fikrlovchi shaxs hayotda faollik koʻrsatadi, muammolarga tanqidiy yondashadi va mustaqil qaror chiqarishdan qoʻrqmaydi. Pedagogik amaliyotda oʻquvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish uchun turli metodlar qoʻllaniladi. Quyida ularning ayrimlari hayotiy misollar orqali tahlil qilinadi.

Oʻquvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish uchun eng samarali interfaol metodlardan biri bu muammoli vaziyat yaratishdir. Darsda oʻqituvchi tayyor maʼlumotni emas, balki muammoni qoʻyadi. Oʻquvchi bu muammo yuzasidan oʻz qarashlarini bildiradi, yechim izlaydi, oʻz fikrini asoslaydi. Bunday yondashuv oʻquvchini hayotga tayyorlaydi, mustaqil fikr yuritishga undaydi. Misol uchun, “Iqlim oʻzgarishining jamiyatga taʼsiri qanday boʻladi?” degan savol oʻquvchilarda fikrlash faolligini uygʻotadi, ular turli manbalarni oʻrganadi, real hayotiy misollarni keltiradi. Yana bir samarali metod – bu bahs-munozara usuli. Ushbu usulda oʻquvchilar maʼlum masala boʻyicha ikki yoki undan ortiq guruhga boʻlinib, har biri oʻz pozitsiyasini dalillar orqali himoya qiladi. Bu jarayonda ular nafaqat oʻz fikrini bildiradi, balki boshqalarning fikrini tinglaydi, solishtiradi, baholaydi. Shunday qilib, bahs oʻquvchilarning tanqidiy va tahliliy fikrlashini kuchaytiradi. Eng muhimi, bahs paytida har bir oʻquvchi oʻz fikrini ochiq aytishga va uni isbotlashga harakat qiladi, bu esa mustaqil qaror chiqarish qobiliyatini. Shuningdek, rol oʻynash metodi ham oʻzining taʼsirchanligi bilan ajralib turadi. Oʻquvchilar biror ijtimoiy yoki axloqiy vaziyatda turli rollarga kirib, uni jonlantiradilar. Bu ularda empatiya, masʼuliyat va ijtimoiy ongini rivojlantiradi. Ayniqsa, hayotiy vaziyatlar orqali dars olib borilsa, oʻquvchilar oʻzini real hayotda qanday tutishni oʻrganadi, harakatlarini anglaydi, xulosa chiqaradi. rivojlantiradi. Taʼlim jarayonining asosiy maqsadi-Taʼlim jarayonining asosiy maqsadi inson shaxsini har tomonlama rivojlantirish, uni jamiyatda faol va masʼuliyatli ishtirokchi sifatida shakllantirishdan iborat. Bu maqsad nafaqat bilim berish bilan cheklanmaydi, balki oʻquvchining fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, hayotga tayyorlash, unga mustaqil qaror qabul qilish, ijtimoiy munosabatlarni anglash va ularga ongli ravishda aralashish koʻnikmasini singdirishni ham oʻz ichiga oladi.



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR**  
**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**  
**2026-yil 30-aprel**



Zamonaviy ta'lim kontseptsiyasi insonni markazga qo'yadi. O'quvchi – bilim oluvchi emas, balki bilimni izlovchi, yaratuvchi va uni amalda qo'llay oluvchi faol ishtirokchi sifatida ko'riladi. Shu nuqtayi nazardan, ta'limning asosiy maqsadi shunchaki faktlarni yodlatish emas, balki o'quvchining tanqidiy fikrlashi, tahlil qilish, umumlashtirish, muloqot qilish, ijod qilish va mas'uliyat bilan qaror qabul qilish kabi kompetensiyalarini shakllantirishdir.

Qobiliyatga yo'naltirilgan ta'lim — bu har bir o'quvchining individual imkoniyatlari, qiziqishlari, intilishlari va tug'ma yoki orttirilgan qobiliyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim yondashuvidir. Bu tizimda o'quvchi "hamma kabi" emas, balki o'ziga xos shaxs sifatida qaraladi va ta'lim jarayoni unga moslashtiriladi. Mazkur yondashuvning asosiy maqsadi — har bir bolada mavjud bo'lgan iste'dod va qobiliyatlarni erta aniqlab, uni yo'naltirish va qo'llab-quvvatlashdir. Bunda o'qituvchi — yo'l boshchi, ko'makchi va rivojlantiruvchi rolda bo'ladi. Darslar esa bir xil shaklda emas, balki turli darajadagi topshiriqlar, ijodiy mashg'ulotlar, loyihaviy ishlanmalar orqali tashkil etiladi. Masalan, kimdir texnik sohalarga qiziqsa, unga amaliy-tajribaviy topshiriqlar beriladi; kimdir san'at yoki adabiyotga yaqin bo'lsa, u bilan ijodiy ishlar, esse yozish, dramatisatsiya bilan shug'ullanish tavsiya etiladi. Bu yondashuv o'quvchining o'ziga ishonchini oshiradi, u o'zini topadi, ijtimoiy hayotda faolroq bo'ladi va o'z kasbini ongli tanlaydi.

Qobiliyatli o'quvchilar o'zlashtirish jarayonida tez va chuqur o'rganish, yangi masalalar va chaqiriqlarni qabul qilish, mustaqil ishlashga intilishadi. Ular faqat o'rganilgan materialni yod olish bilan cheklanmay, uni kengroq kontekstda tahlil qilishga harakat qiladilar. Bunday o'quvchilar murakkab muammolarni hal qilishda qiziqish ko'rsatadilar va yangi g'oyalar yaratish, ijodiy fikrlash orqali bilimlarni kengaytiradilar. Tanqidiy fikrlash qobiliyati, materialni tanqidiy tahlil qilish va yangi yechimlar ishlab chiqishga qiziqish ham o'zlashtirish jarayonining muhim qismidir. Shuningdek, qobiliyatli o'quvchilar o'z-o'zini baholash va o'z o'rganish jarayonini yaxshilash uchun doimiy ravishda qayta ko'rib chiqadilar. Ular o'z maqsadlariga erishish uchun yuqori motivatsiyaga ega bo'lib, bu ularni yanada yuqori natijalarga erishishga undaydi. Ularning o'rganish uslubi mustaqillik, ijodiy yondashuv va yangilikka intilishdan iborat bo'lib, bu ularga yangi bilim.

Differensial yondashuv orqali har bir o'quvchining individual xususiyatlari hisobga olinadi. O'quvchilarga o'z ehtiyojlari va darajasiga mos materiallar beriladi, shuningdek, o'quvchilarni shaxsiy xususiyatlarga ko'ra moslashtirilgan yondashuvlar orqali ta'lim jarayoni tashkil etiladi. Bu, yuqori qobiliyatli o'quvchilarga murakkabroq savollar va topshiriqlar, kamroq qobiliyatli o'quvchilarga esa qo'shimcha yordam ko'rsatish imkonini beradi.

Ijtimoiy va guruhli o'rganish ta'limni samarali qilish uchun guruhlar o'rtasida bilim almashish va hamkorlikni kuchaytiradi. O'quvchilar guruhlarda ishlash orqali bir-biridan o'rganadilar, o'z fikrlarini ishlab chiqadilar va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradilar. Bu usul o'quvchilarning kommunikatsiya va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini oshiradi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o'quvchilarga materialni tahlil qilish va baholash imkoniyatlari



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR**  
**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**  
**2026-yil 30-aprel**



yaratish zarur. O'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifodalash, mavzularni turli nuqtai nazardan tahlil qilish orqali mustaqil fikr shakllantirishga o'rganadilar. Bu jarayon o'quvchilarda qarorlar qabul qilish va tahlil qilish ko'nikmalarini oshiradi. Projektga asoslangan ta'lim orqali o'quvchilar o'rganan bilimlarini real hayotdagi masalalarga qo'llashni o'rganadilar. O'quvchilar o'zlari tanlagan yoki berilgan muammoni yechish uchun loyiha ishlab chiqadilar va uning ijodiy yechimlarini ishlab chiqatadilar. Bu yondashuv ijodkorlik va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, interfaol metodlarni qo'llash orqali o'quvchilar darsda faol ishtirok etadilar va o'z fikrlarini erkin bildirishadi. Bu usul, o'quvchilarning darsda yanada faol bo'lishini ta'minlaydi va ular o'rganan bilimlarni nafaqat yodlash, balki amaliyotda ishlatish imkoniyatini yaratadi. O'z-o'zini baholash o'quvchilarning rivojlanishini kuzatish va o'z ustida ishlashga undaydi. O'quvchilar o'zlarining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlab, o'quv jarayonida yaxshilanish uchun kerakli o'zgarishlarni amalga oshiradilar. Bu jarayon o'quvchilarning o'z-o'zini tahlil qilish va o'zgarishlarga ochiq bo'lishini ta'minlaydi. O'qituvchi tomonidan motivatsion yondashuv ta'lim jarayonini samarali qilishda muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi o'quvchilarga o'z maqsadlariga erishish uchun rag'batlantirish, ular bilan hamkorlik qilish va ilhomlantirish orqali muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi. Bularning barchasi o'quvchilarning yanada chuqurroq ma'lumotni o'zlashtirishi, fikrlashni rivojlantirishi va bilimlarni kengroq doirada qo'llash imkonini yaratadi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va ularning qobiliyatlarini to'liq ochib berish uchun bir qancha samarali yondashuvlar mavjud. Differensial yondashuv, guruhli o'rganish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, projektga asoslangan ta'lim va interfaol metodlar orqali o'quvchilar nafaqat ma'lumotlarni o'zlashtiradilar, balki ularni kengroq doirada qo'llash, tahlil qilish va yangi yechimlar yaratish qobiliyatini rivojlantiradilar. Shuningdek, o'quvchilarga o'z-o'zini baholash va mustaqil o'rganish imkoniyatlari yaratish, ularning o'z ustida ishlashga undaydi. O'qituvchilarning motivatsiyasi va yondashuvi ta'lim samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bu metodlar o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirib, ularni zamonaviy jamiyatga tayyorlashga yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Hasanboyeva N. "Pedagogik texnologiyalar asoslari". – Toshkent: TDPU, 2020.
2. Rajabova D. "Innovatsion ta'lim texnologiyalari". – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
3. Yo'ldoshev Q. "Pedagogik mahorat". – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2019.
4. Dewey J. "Demokratiya va ta'lim" (Democracy and Education). – New York, 1916.
5. Vygotsky L.S. "O'quvchilarning psixologik rivojlanishi nazariyasi". – Moskva: Pedagogika, 1984.
6. Karimova V., Egamberdiyev A. "Psixologiya asoslari". – Toshkent: O'qituvchi, 2018.



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR**  
**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**  
**2026-yil 30-aprel**



7. Shodmonov Sh. "Ta'limda interfaol metodlar". – Samarqand: 2020.
8. UNESCO. "Fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha tavsiyalar", 2022-yilgi hisobot.